

MICE TURIZM FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA GERMANIYA  
TAJRIBASIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

*Xalilova Gulnoza Nurullo qizi*

*Oriental universiteti o'qituvchi-stajyori, Toshkent davlat*

*iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi (PhD)*

*gulnoza888894@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda turizmni rivolantirishda xorij tajribasidan foydalanish, MICE turizmnинг hozirgi kundagi eng serdaromad turizm turi ekanligi haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** MICE turizm, gibrild konferensiyalar, tendensiya, raqobat, o‘sish, xalqaro hamkorlik, valyuta oqimi.

**Abstract:** This thesis presents ideas and observations on the use of foreign experience in developing tourism, MICE tourism as the most profitable type of tourism today.

**Keywords:** MICE tourism, hybrid conferences, trend, competition, growth, international cooperation, currency flow.

Biznes sayohatlari zamonaviy turizmning eng tez rivojlanayotgan sohasidir. Bilamizki, ish turizmi jadal sur’atlar bilan rivojlanib kelayotgan turizm turlaridan biridir. Mustaqil va yuqori daromadli turizm turi sifatida ishbilarmonlik turizmi 70-80-yillarda Yevropa va AQSHda rivojlnana boshlagan. MICE so‘zi ingliz tilidagi Meeting, Incentives, Conferences, Events kabi so‘zlar majmuasidan tashkil topgan bo‘lib, u uchrashuvlar, konferensiyalar, turli tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan ish safarlarini o‘z ichiga oladi. MICE turizmining rivojlanishi mamlakatlararo, hukumatlararo va tashkilotlararo munosabatlarni yaxshilash, biznes va hamkorlik bo‘yicha shartnomalarni imzolash, o‘zaro manfaatli takliflarni almashish, yangi g‘oyalarni izlab topish, munozarali va muhokamali vaziyatlarni hal qilishda samarali yechim hisoblanadi. Bunda ayniqsa ish va turizmning o‘zaro bog‘lanishi ikki hamkor tomonlarga ham ijobiy foya olib keladi. MICE turizmini rivojlantirishda unga ta’sir etadigan omillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar jumlasiga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin:

- mehmonxona, transport, biznes, madaniy-ko‘ngilochar infratuzilma va logistika kompleksining rivojlanish darajasi;
- hududiy moliyaviy-iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi;
- biznes tuzilmalarining axborot tizimining ochiqligi;
- hukumat tuzilmalarining jahon iqtisodiyotining o‘zgaruvchan voqeliklariga moslashuvchanligi.

MICE turizmi – bu biznesning (tijorat) maqsadli yoki korporativ, madaniy, ijodiy, sport, va boshqa turdag'i tadbirlarni tashkil qiluvchi kompaniyalar, tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan turizm turidir.

MICE turizmini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi desak adashmagan bo'lamiz. Chunki MICE turizmda mavsumiylik degan tushuncha yo'q. Yil 12 oy MICE turizm tadbirlarini tashkil etish hamda ushbu tadbirlarni tashkil etish ortidan turistlar oqimini ko'paytirish, valyuta tushumini oshirish imkoniyatlari ega bo'lishimiz mumkin. Quyida MICE turizmni rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish yo'llarini ko'rib chiqishimiz mumkin:

### **Germaniyaning MICE Turizmini Rivojlantirishdagi Tajribasi<sup>1</sup>**

<b>Tashkiliy Yondashuv</b>	Germaniyada MICE turizmini boshqarish bilan shugullanuvchi maxsus davlat va xususiy tashkilotlar mavjud (masalan, German Convention Bureau - GCB).  Rasmiy rejalashtirish va marketing strategiyalari davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.
<b>InfraTuzilma</b>	Germaniyada yirik xalqaro kongress markazlari va zamonaviy ko'rgazma zallari mavjud (Frankfurt Messe, Berlin ExpoCenter City, Hamburg Messe).  Transport tizimi rivojlangan bo'lib, anjuman ishtirokchilari uchun qulay logistikani ta'minlaydi.
<b>Marketing va Brending</b>	Germaniya MICE tadbirlarini global darajada targ'ib qilish uchun xalqaro hamkorlik va marketing strategiyalaridan foydalanadi.  «Meetings made in Germany» brendi ostida yirik xalqaro tadbirlarga mezbonlik qiladi.
<b>Barqarorlik va Innovatsiyalar</b>	Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik uchun ekologik barqarorlikka katta e'tibor qaratiladi (Green Meetings).  Raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar orqali MICE tadbirlarini yanada samarali o'tkazish ta'minlanadi.

2021-2025-yillarda zarur infratuzilmani rivojlantirish va respublika sayyoqlik salohiyatini jahon bozorlarida muvaffaqiyatli targ'ib qilish orqali mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi turizm ulushini 5 foizga yetkazish, shuningdek, 9 milliondan ortiq sayyojni jalb etish maqsadi qo'yildi. 2025 yil oxiriga qadar, shu jumladan uzoq xorijdan 2 mln. Turistni jalb qilish belgilangan<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> <https://www.travelandtourworld.com/news/article/germany-welcomes-global-mice-community-as-imex-2025-opens/>

<sup>2</sup> 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiysi//elektron resurs/<https://lex.uz/ru/docs/-4143188>

**I-jadval**

022-yil davomida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida 11 nis-  
022-yil davomida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil” dasturi doirasida nis-

### **O‘zbekistonda turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha erishilgan va maqsadli ko‘rsatkichlar dinamikasi<sup>3</sup>**

Ko‘rsatkich	Haqiqiy ko‘rsatkichlar				Maqsadli ko‘rsatkichlar		
	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.	2023 y.	2025 y.
Turistik xizmatlar eksporti, mln	546,9	1041,0	1313,0	370,0	1399,1	1739,4	2232,8
O‘zbekistonga kelgan xorijiy sayyoohlari soni, ming kishi	2690,0	5346,8	6748,0	1504,1	6743,3	7865,4	9089,3
Mahalliy sayyoohlari soni, mingta sayohat	10560	14000	15640	18000	18806	21867	25010
Turoperatorlar soni, birlıkları	561	983	1482	1158	1262	1458	1676
Mehmonxonalar va shunga o‘xshash joylashtirish vositalari soni, birlıkları	816	914	1188	1226	2394	2715	2994
Turar joy binolaridagi xonalar soni, ming birlik	18,6	20,2	26,1	29,2	48,7	55,2	60,9

2024-yilning yanvar-fevral oylarida O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyoohlari soni 974,2 ming nafarni tashkil etdi. Turistlarning asosiy qismi Markaziy Osiyo davlatlaridan: Tojikiston-363,3 ming, Qirg‘iziston-291,1 ming, Qozog‘iston-155,9 ming nafar kishi tashrif buyurgan. Yil boshidan buyon mamlakatimizga eng kam sayyooh Xitoydan-5,5 ming, Janubiy Koreyadan-5,4 ming va Belarusdan-2,2 ming nafar kishi tashrif buyurgan<sup>4</sup>.

Germaniya MICE turizmini rivojlantirishda tajribaga ega bo‘lgan yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston ushbu tajribadan foydalaniib, strategik rejalshtirish, infrastrukturani yaxshilash, marketingni kuchaytirish va ekologik barqarorlikni ta’minlash orqali MICE turizmini rivojlantirishga erishishi mumkin. Bu esa mamlakatning xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirish va iqtisodiy daromadni ko‘paytirishga xizmat qiladi. Quyida **O‘zbekiston uchun Germaniya tajribasidan foydalanish imkoniyatlari haqida takliflar keltirilgan:**

- 1. Maxsus qavlat qo‘mitasini yaratish**
- 2. Infratuzilmani rivojlantirish**

<sup>3</sup> <https://uzbektourism.uz/service/opendata>

<sup>4</sup> <https://uz.kursiv.media/uz/2024-03-18/ozbekistonga-sayyoohlari-oqimi-12-foizga-oshdi/>

3. Yirik xalqaro kongress va ko‘rgazma markazlarini barpo etish.

4. Aeroport, mehmonxona va transport xizmatlarini yaxshilash.

**5. Marketing va targ‘ibot ishlari**

6. «MICE Uzbekistan» brendi ostida xalqaro tadbirlarga mezbonlik qilish.

7. Germaniya bilan hamkorlikda qo‘shma tadbirlarni tashkil qilish.

**8. Texnologik rivojlanish va barqarorlik**

9. MICE tadbirlarini raqamlashtirish va onlayn platformalardan foydalanish.

10. Atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga rioya qilish.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Germany Welcomes Global MICE Community as IMEX 2025 Opens//electron resurs// <https://www.travelandtourworld.com/news/article/germany-welcomes-global-mice-community-as-imex-2025-opens/>

2. 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiysi//elektron resurs//<https://lex.uz/ru/docs/-4143188>

3. <https://uzbektourism.uz/service/opendata>

4. <https://uz.kursiv.media/uz/2024-03-18/ozbekistonga-sayyohlar-oqimi-12-foizga-oshdi/>